

**“O‘zbektelekom” AKda 2025-yilning yarim yilligi uchun korrupsiyaga qarshi kurashish
tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT ***

I. Kompaniyaning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot¹

2025-yilning yarim yilligida Kompaniyaning Andijon filialida “O‘zbektelekom” AK korrupsiyaga qarshi ichki hujjatlari talablari ijrosini monitoring qilish bo‘yicha o‘rganish olib borildi. O‘rganish natijalari umumlashtirilgan holda Kompaniya rahbariyatiga taqdim etildi. Shuningdek Kompaniyaning 2025-yil 14-apreldagi 166-son buyrug‘iga asosan 12-maydan 30-mayga qadar Kompaniyaning ijro apparatida ISO:37001:2016 standarti asosida ichki audit o‘tkazildi. Audit doirasida ijro apparatining 30 ta tashkiliy tuzilmalarida (departament, boshqarma va xizmatlar) o‘rganishlar tashkil etildi. Audit natijalari bo‘yicha tegishli hisobot va chora-tadbirlar rejasi rasmiylashtirildi. Bugungi kunda mazkur chora-tadbirlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Qonunchilikdagi o‘zgarishlar asosida 2025-yilning yarim yilligida “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomaning yangi tahriri Kompaniyaning 2025-yil 17-martdagi 120-son buyrug‘i bilan tasdiqlandi.

III. Xavf-xatarlarni baholash²

Hisobot davrida Agentlikning maxsus <https://e-anticor.uz/> platformasida Kompaniyaning 27 ta funksiyasi doirasida korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholandi. Baholash natijalariga ko‘ra xatari “Yuqori” bo‘lgan – 3 ta, “O‘rta” – 11 ta va 13 ta “Past” darajadagi xatar aniqlandi.

**IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar
Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish**

2025-yilning yarim yilligida Kompaniya ijro apparatida 209 ta yillik, 26 ta ishga qabul qilingandagi va rotatsiya munosabati bilan 20 ta, jami 255 ta ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida deklaratsiya to‘ldirildi. Kompaniya filiallari boshqaruv xodimlari tomonidan 443 ta yillik, Kompaniya bo‘yicha jami 698 ta ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida deklaratsiya to‘ldirildi. Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida deklaratsiyalarini tahlil qilish natijasida Kompaniyaning ikkita filiallida yaqin qarindoshlarning bir biriga to‘g‘ridan to‘g‘ri boysunuvi bilan bog‘liq manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlanib Kompaniyaning “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish

¹Ushbu bo‘limda va keyingi o‘rinlarda hisobotning har bir bo‘limi bo‘yicha quyidagilarni ko‘rsatish kerak:

- Birlashgan ko‘rinishda markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida hisobot davri uchun ma‘lumotlar. Agar zaruriyat bo‘lsa, alohida bo‘linmalar va ular bo‘yicha ma‘lumotlarni ko‘rsatish;
- Zaruriyat tug‘ilganda avvalgi davrlar ko‘rsatkichlari bilan solishtirma tahlil o‘tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik\erishmaganlik sabablarini ko‘rsatish lozim.

²Bo‘lim faqat har yillik hisobot davrida to‘ldiriladi. Mazkur bo‘limda Tashkilot tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarni baholashni o‘tkazish uslubiyotiga muvofiq amalga oshirilgan xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tahliliy axborot aks ettiriladi.

to'g'risida"gi Nizom talablari asosida Odob-ahloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasining tegishli qarori asosida tartibga solindi (xodim boshqa bo'limga o'tkazildi).

Korrupsiyaga qarshi qoidalarini Kompaniya sharnomalariga kiritish

Kompaniya tomonidan tuziladigan shartnomalarga quyidagi korrupsiyaga qarshi kurashish shartlari kiritildi:

1.1. Tomonlar va ularning har biri poraxo'rlik va korrupsiyaga mutlaqo toqat qilmaslik siyosatiga ega ekanligini tan oladilar va tasdiqlaydilar, bu esa korrupsion harakatlarni to'liq taqiqlashni va to'lovlarni osonlashtirishni nazarda tutadi, uning maqsadi tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq rasmiyatchiliklarni soddalashtirish, tezkorlik bilan ta'minlashdir, muayyan masalalarni hal qilish. Tomonlar o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik va uning asosida ishlab chiqilgan, poraxo'rlik va tijoriy poraxo'rlik bilan kurashishga qaratilgan siyosat va tartiblarga amal qiladi.

1.2. Tomonlar o'zlari va ularning xodimlari har qanday shaxsga (jumladan, jismoniy shaxslarga, tijorat tashkilotlariga va davlat mansabdor shaxslariga) korrupsion to'lovlarni (pul yoki qimmatbaho sovg'alar) taklif etmasligi, taqdim etmasligi, bermasligi yoki unga rozilik bermasligiga kafolat beradi va xech qanday shaxsdan to'g'ridan-to'g'ri yoki belvosita har qanday korrupsion to'lovlarni (pul yoki qimmatbaho sovg'alar) olishga, qabul qilishga rozi bo'lmaydi.

1.3. Agar tomonlardan biri shartnomaning ushbu bo'limining har qanday qoidalari buzilganligi yoki sodir bo'lishi mumkinligi haqida asosli shubhalarga ega bo'lsa, tegishli Tomon boshqa Tomonni bunday shubhalar yuzaga kelgan paytdan 5 ish kunidan kechiktirmay yozma ravishda xabardor qilishga majburdir. Tomonlardan biri shartnomaning ushbu bo'limi qoidalarini buzganligi faktini tasdiqlangan taqdirda, boshqa Tomon ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

Kontragentlarni tekshirish

2025-yilning yarim yilligi davomida jami 220 ta kontragent tekshirildi. Tekshiruv natijasida 195 ta ijobiy, 25 ta salbiy xulosa olindi. Salbiy xulosalarning 22 tasi o'zaro affillangan tashkilotlarga, 1 tasi ish faoliyati xarid predmetiga to'g'ri kelmasligi, 1 tasi soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorlikni yashirgan va 1 tasi 1 tasi soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi mavjud bo'lgan kontragentlarga rasmiylashtirildi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

2025-yilning yarim yilligi davomida Kopaniyaga 26 ta yangi xodim ishga qabul qilingan va ularning barchasi o'rnatilgan tartibda tekshirilgan.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Kompaniyada korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha 2025-yilning yarim yilligi davomida umumiy o'quv kurslarda 503 ta xodimning malakasi oshirilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus kurslarda korrupsiyaviy xatari yuqori bo'lgan lavozimdagi 1 nafar xodim o'qitilgan.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar

Kompaniyada xodimlarning korrupsiyaviy xatti-xarakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risidagi aloqa kanallari orqali kelib tushgan asosli xabarlar 2025-yilning yarim yilligida mavjud emas.

VII. Monitoring va nazorat

2025-yilning yarim yilligida Kompaniyaning Andijon filialida "O'zbektelekom" AK korrupsiyaga qarshi ichki hujjatlari talablari ijrosini monitoring qilish bo'yicha o'rganish olib borildi. O'rganish natijalari umumlashtirilgan holda Kompaniya rahbariyatiga taqdim etildi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

2025-yilning yarim yilligida Kompaniya hodimlari o'rtasida korrupsiya bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlanmadi.

IX. Xulosalar

"O'zbektelekom" AK 2022-yil 5-sentabr kuni ISO:37001:2016 korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimining xalqaro standartga muvofiqlik sertifikatini qo'lga kiritdi.

Sertifikat talablariga asosan taqdim etilgan sertifikatga mutanosiblik darajasini o'rganish maqsadida ikkinchi kuzatuv auditini o'tkazish maqsadida xalqaro "Cert International" tashkiloti bilan tegishli shartnoma o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilib 2024-yilning 14-15-noyabrida o'tkazildi. Audit natijasiga asosan Kompaniyaning ISO:37001:2016 korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimining xalqaro standartga muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati uzaytirildi.

Mazkur sertifikatning amal qilish muddati 2025-yilning sentabr oyida tugashi munosabati bilan joriy yilning 3-choragida ISO:37001:2016 standarti talablariga ko'ra Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini qayta sertifikatsiyadan o'tkazish rejalashtirilgan.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Kompaniyada korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida "Komplaens nazorat" tizimi qamrovini kengaytirish hamda Kompaniyada korrupsiyani oldini olish maqsadida hodimlarining huquqiy ongi va huquqiy bilimlarini oshirish, "Korrupsiyaga qarshi siyosat hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatlar" mavzusida seminar-treninglar o'tkazish.